

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

NISHONBOYEV DONIYOR ERKINJON O‘G‘LI

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING TASHQI IQTISODIY
FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI
(Farg‘ona viloyati misolida)**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Contents of the Dissertation Abstract of doctor of philosophy (PhD) in
Economics Sciences**

Nishonboyev Doniyor Erkinjon o‘g‘li

Tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish masalalari (Farg‘ona viloyati misolida)..... 3

Нишонбоев Дониёр Эркинжон угли

Вопросы повышения эффективности внешнеэкономической деятельности субъектов предпринимательства (на примере Ферганской области)..... 25

Nishonboev Doniyor Erkinjon ugli

Issues of improving the Effectiveness of Foreign Economic Activities of entrepreneurial entities (on the example of the Fergana region)..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/27.05.2020.I.66.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

NISHONBOYEV DONIYOR ERKINJON O‘G‘LI

**TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING TASHQI IQTISODIY
FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI
(Farg‘ona viloyati misolida)**

08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**IQTISODIYOT FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2023.2.PhD/Iqt3141 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya ishi Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.namnti.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kazakov Olim Sobirovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Bustonov Mansurjon Mardonakulovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Kadirov Abdumalik Matkarimovich
iqtisodiyot fanlari doktori

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/27.05.2020.I.66.03 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "_____" _____ soat ___:___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71, faks: (0569) 228-76-75, e-mail: niei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (0569) 228-76-71).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil "_____" _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.D.Sayitbayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.Z.Muxitdinov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

R.I.Israilov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashev jarayonlarining kuchayishi sharoitida iqtisodiy subyektlarining faoliyati ichki bozorga yo'naltirilishi bilan bir qatorda xalqaro bozorlardagi faoliyatining ham ahamiyati ortib bormoqda. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyatda ishtirok etish orqali mamlakat eksport salohiyatini oshirishga munosib hissa qo'shishi lozim. Hozirgi vaqtga kelib kichik biznes va tadbirkorlik jadal rivojlanish sur'atlariga ega bo'lmoqda. Bugungi kunda g'arb mamlakatlarida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganlar mamlakatlar ishga yaroqli aholisining 50-70 foizini tashkil etadi. Ayrim mamlakatlarda tadbirkorlik faoliyatining hissasi bundan ham yuqoriroqni tashkil etadi. Masalan, "Amerika Qo'shma Shtatlarida 56%, Germaniyada 43%, Xitoy va Janubiy Koreyada 60%, Niderlandiyada 63% yalpi ichki mahsulot kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati hisobidan shakllanmoqda"¹. Bu esa jahonda tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish masalalarining dolzarbligini namoyon etadi.

Jahonda global integratsiyaning kuchayishi sharoitida tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish masalalariga qaratilgan ilmiy izlanishlar kengayib bormoqda. Tashqi iqtisodiy faoliyatda raqamli texnologiyalarni joriy qilish, markazlashtirilmagan eksport infratuzilmasini rivojlantirish, xalqaro savdo tashkilotlari va integratsion tuzilmalar bilan hamkorlik strategiyasini tahlil qilish, mahalliy mahsulotlarning xalqaro bozorda raqobatbardoshligini oshirish, tadbirkorlarni xalqaro standartlar va texnik talablarga tayyorlash, eksport kreditlarini jalb qilish mexanizmlarini rivojlantirish, innovatsion mahsulotlar va xizmatlar yaratish, xalqaro biznes menejmenti, marketing va huquq sohasida mutaxassislarini tayyorlash, xalqaro muloqot ko'nikmalariga e'tibor qaratish, ekologik toza mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan strategiyalarni ishlab chiqish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda iqtisodiyotda xususiy sektorga keng yo'l ochilganligi munosabati bilan tadbirkorlik faoliyati rivojlanib bormoqda va istiqbolda yanada yuqoriroq sur'atlar bilan yuksalib borishi 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilab qo'yilgan. Unga muvofiq xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini 80 foizga va eksportdagi ulushini 60 foizga yetkazish maqsadi belgilangan². Jahonning yetakchi tadqiqotchilik markazlaridan biri hisoblangan Harvard universiteti mutaxassislarining tadqiqotlariga ko'ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda yetarli darajadagi imkoniyatlarga ega³. Ishlab chiqarish bilan birgalikda, bu mahsulotlarni jahon bozoriga olib chiqish masalasi ham qo'yilmoqda. Ushbu vazifalarni samarali hal etish tadbirkorlik subyektlarining

¹ <https://mspm.ru/vse-o-malom-biznese/znachenie-malogo-biznesa/>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. T.: «O'zbekiston», 2022 y.

³ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligining rasmiy veb-sayti. "Iqtisodiy o'sishning asosi sifatida sanoatda chuqur qayta ishlashni rivojlantirishning ahamiyati". <https://www.mineconomy.gov.uz/uz/news/view/3865>

imkoniyatlarini va ulardan foydalanish darajasini o'rganish asosida ularning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini baholashni takomillashtirish, tadbirkorlik subyektlari samaradorligini oshirishga olib boruvchi tadbirlar natijalarini baholashga imkon beruvchi tashqi iqtisodiy faoliyati ko'rsatkichlari tizimlashtirish, tadbirkorlik subyektlarida samaradorlikni oshirishga imkon berish yo'nalishida eksportga yo'naltirilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini ishlab chiqish, tadbirkorlik subyektlarining eksport imkoniyatlaridan foydalanish holati tahlil qilinishi asosida ularning uzoq yillarga mo'njallangan prognoz parametrlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan dissertatsiya ishlarining amalga oshirilishini taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2022 yil 8 apreldagi PF-101-son «Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlarni yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida», 2022 yil 9 iyundagi PF-150-son «Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2022 yil 13 iyundagi PF-153-son «Maxsus iqtisodiy, kichik sanoat, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyati samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida», 2022 yil 27 apreldagi PF-122-son «Bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2022 yil 9 noyabrdagi PF-244-son «Tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022 yil 30 sentabrdagi PF-228-son «Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022 yil 27 iyuldagi PF-178-son «Tadbirkorlik subyektlari bilan samarali muloqot tizimini joriy etish va ularning huquqiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022 yil 21 yanvardagi PF-54-son «Respublika hududlarida tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida», 2022 yil 21 dekabrdagi PF-268-son «Tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati va uning eksport salohiyatini yuzaga chiqarish orqali samaradorligini oshirish yo'nalishida olimlar, mutaxassislar va tadqiqotchilar shug'ullanganlar. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati hamda bu faoliyatda eksport salohiyatini oshirishning ilmiy-metodologik jihatlari iqtisodchilar tomonidan tadqiq etilgan. Iqtisodchi olimlar Y.A.Shumpeter, J.M.Keyns, R.D.Xizrich, M.E.Piters, Sotiros D., Rodrigues V., Silva M., Mulabdic A., Yasar P., D.Angelo, Ganotakis R.,

Gerschewski S., Scott-Kennel J. & Rose E.L., F.M.Kotler, P.A.Samuelson kabi olimlarning ilmiy asarlarida tadbirkorlik faoliyati tadqiq etilgan⁴. Tadbirkorlik borasidagi dolzarb masalalar MDH olimlaridan A.O.Blinov, M.M.Maksimsev, V.Y.Gorfinkel, Ye.M.Kupryakov, V.S.Katkalo va boshqalarning ilmiy asarlarida tadqiq etilgan va turli xulosalar chiqarilgan⁵.

O‘zbekistonda U.V.G‘afurov, S.N.Usmonov, A.Xudoyberdiyev, D.A.Abdieva, SH.M.Kambarova, Z.A.Xolmuminov, J.N.Nosirova, R.N.Ishimbayev N.X.Sadriddinova, A.A.Abdieva va boshqalar tadbirkorlikning rivojlanishi, ishlab chiqarish va eksport faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar o‘tkazganlar, ijobiy xulosalarga kelingan va ular rivojlanish uchun asos bo‘lgan⁶. Shu bilan birgalikda, iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida tadbirkorlik faoliyati korxonalaridan eksport salohiyatini yuksaltirish va u orqali mamlakat iqtisodiy qudratini oshirish yo‘nalishida tadqiqotlar olib borilishi muhim yo‘nalishlardan bo‘lib turibdi va ushbu mavzu doirasida tadqiqot olib borish dolzarb hisoblanadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Farg‘ona davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №36-2-raqamli “Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati samaradorligini oshirish” mavzusidagi (2021-2023 yy.) ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotning globallasuvi sharoitida tadbirkorlik faoliyatining tashqi iqtisodiy faoliyatdagi samarali ishtiroki orqali mamlakat eksport

⁴ Шумпетер Й. Теория экономического развития. - М.: “Мысль”, 1982, С. 159.; Кейнс Дж. М. Общая теория занятости, процента и денег. Избранное. - М.: Эксмо, 2007. С. 166-169 и 370.; Хизрич Р., Питерс М. Предпринимательство. - М.: 1991. - 220 с.; Sotiros D., Rodrigues V., Silva M. (2022), Analysing the export potentials of the Portuguese footwear industry by data envelopment analysis. Omega, 108(C); Mulabdic A., Yasar P. (2021), Gravity Model-Based Export Potential: An Application to Turkey. World Bank Policy Research Working Paper, (9557); D. Angelo, A.Ganotakis P. (2020). Learning-by-exporting under fast, short-term changes: The moderating role of absorptive capacity and foreign collaborative agreements. International Business Review, 29,101687.; Gerschewski S., Scott-Kennel J. & Rose E. L. (2020). Ready to export? The role of export readiness for superior export performance of small and medium-sized enterprises. The World Economy, 43, 1253–1276.; Котлер Ф. Основы маркетинга. Краткий курс. / Пер. с англ. - М.: Издательский дом «Вильямс», 2007. - 656 с. ил - Парал. тит. англ.; Пол А. Самуэльсон, Вильям Д.Нордхаус. Экономика: Пер с англ. - М.: «Лаборатория Базовых Знаний», 2000. -800 с.: ил.

⁵ Блинов А. О. Малое предпринимательство. Организационные и правовые основы деятельности. - 2-е изд. - М.: «Ось-89», 1998. - 336 с.; Менеджмент малого бизнеса: Учебник. / Под ред. проф. М.М.Максимцева и проф. В.Я.Горфинкеля. - М.: Вузовский учебник, 2007. - 269 с.; Курс предпринимательства: Учебник для вузов. / В.Я.Горфинкель, В.А.Швандар, Е.М.Купряков и др.; - М.: Финансы, ЮНИТИ, 1997. - 439 с.; Катъкало В.С., Панибратов А.Ю. Основы бизнеса: Учебник. - СПб.: Издат. дом С.-Претерб. гос. ун-та, 2006. - 290 с.

⁶ G‘afurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Diss... 08.00.13 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti; 08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi (iqtisodiyot fanlari) - T.: 2017.; S.N.Usmonov, Y.T.Dodobayev, A.Xudoyberdiyev. Tadbirkorlik asoslari. “Farg‘ona” nashriyoti, 2000 yil. - 304 b.; A.Abdieva. Tikuv-trikotaj mahsulotlari eksportida marketing tadqiqotlari. Monografiya.-T: Globe Edit – Germaniya/ 2021 yil. 175 bet.; SH.M.Kambarova. O‘zbekistonda innovatsiya jarayonlari rivojlanishi sharoitida kichik biznesing eksport salohiyatini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. 2023 yil.; Z.A.Xolmuminov. Mamlakat eksport salohiyatini moliyaviy vositalar orqali rivojlantirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. 2023 yil.; N.J.Nosirova. Kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlarining eksport salohiyatini oshirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. 2022 yil.; R.N.Ishimbayev. Iqtisodiyotni liberalizatsiyalashtirish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning raqobatbardoshligini oshirish (Namangan viloyati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. 2023 yil.; N.X.Sadriddinova. To‘qimachilik klasterining eksport salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati. 2022 yil.

salohiyatidagi ulushini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

tadbirkorlikning subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha nazariy-metodologik asoslarni tahlil qilish;

tadbirkorlik faoliyatining tashqi iqtisodiy faoliyati ko'rsatkichlari tizimini o'rganish va globallashtirish sharoiti uchun mos bo'lgan ko'rsatkichlarni taklif qilish;

tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati, imkoniyatlari va samaradorligi darajasini o'rganish asosida foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlarni aniqlash;

Farg'ona viloyati iqtisodiyoti va uning rivojlanishida tadbirkorlik subyektlari ulushini aniqlash, tahlil qilish va baholash;

tadbirkorlik subyektlarining xalqaro bozorlaridagi holatini o'rganish va uni yaxshilash yo'nalishlarini ishlab chiqish;

tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatidan foydalanish darajasining istiqboldagi holatini aniqlash;

tadbirkorlik subyektlarida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar raqobatbardoshligi darajasini yuksaltirish bo'yicha mexanizmlarni taklif qilish;

xorij mamlakatlaridagi savdo uylarining faoliyatini tashkil etish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatida strategiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Farg'ona viloyatida tadbirkorlik sohasida faoliyat yuritayotgan "Quva Tekstil" MCHJ, "Narimteks" va "Victory textile" MCHJ korxonalari olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib mamlakatdagi tadbirkorlik subyektlarining eksport bilan bog'liq faoliyati va ularning mahsulot eksport qilish hajmini oshirish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, qiyosiy tahlil, tanlama kuzatish, statistik hamda ko'p omilli ekonometrik tahlil usullari, prognozlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy imkoniyatlari hamda ulardan foydalanish darajasining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini "yuqori" (4,6 - 5,0), "yaxshi" (4,0 - 4,5), o'rta (2,0 - 3,9), "past" (0-1,9) darajalar chegarasida baholash orqali tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini faollashtirish yo'nalishlarini aniqlash taklifi asoslangan;

tadbirkorlik subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishni ta'minlovchi tadbirlar ($\sum_{i=1}^n T_i$) natijalarini eksport faoliyati ($E_f = 12$), import faoliyati ($I_f = 10$), umumiy faoliyat ($U_f = 10$) bo'yicha baholashga imkon beruvchi ko'rsatkichlarni tatbiq etish orqali takomillashtirish taklifi asoslangan;

tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda eksportga yo'naltirilayotgan har bir mahsulot uchun "manzilli qulay raqobat mikromuhiti"ni shakllantirish orqali tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

Farg'ona viloyatidagi tadbirkorlik subyektlarining eksport imkoniyatlaridan foydalanishning ekonometrik tahlili asosida asosiy faoliyat ko'rsatkichlarining 2028 yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadbirkorlik faoliyatining tashqi iqtisodiy faoliyati ko'rsatkichlari tizimini o'rganish va globallashtirish sharoiti uchun mos bo'lgan ko'rsatkichlar taklif qilingan;

tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati, imkoniyatlari va samaradorligi darajasini o'rganish asosida foydalanilmayotgan ichki imkoniyatlar aniqlangan;

Farg'ona viloyati iqtisodiyoti va uning rivojlanishida tadbirkorlik subyektlari ulushi aniqlangan va baholangan;

tadbirkorlik subyektlarida eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar raqobatbardoshligi darajasini yuksaltirish bo'yicha mexanizm taklif qilingan;

xorij mamlakatlaridagi savdo uylarining faoliyatini tashkil etish yo'nalishlarini ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi tadbirkorlik subyektlaridagi tajribalarni o'rganish va tahlil qilish, eksportga yo'naltirilayotgan tovarlar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishidagi mavjud ilmiy tadqiqot ishlarining ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, ma'lumotlar bazasining milliy va xalqaro tashkilotlarning rasmiy manbalari, yillik statistik to'plamlaridan olinganligi va ularni turli usullar yordamida solishtirilganligi va tahlil qilinganligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma'lumotlari hamda amaliy ma'lumotlar, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar ma'lumotlari tahliliga asoslanganligi bilan belgilanadi. Dissertatsiya ishida qo'llanilgan usullar, ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar va prognozning maqsadga muvofiqligi, ekonometrik va matematik usullarning asoslanganligi, statistik ma'lumotlarning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining ma'lumotlariga hamda boshqa rasman e'lon qilingan amaliy ma'lumotlar tahliliga asoslanganligi va tegishli xulosa, takliflarning kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot ishida ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy tavsifdagi tavsiyalardan mamlakatimiz hududlarida tadbirkorlik subyektlarining hudud iqtisodiyotidagi va eksport salohiyatidagi o'rnini oshirish, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati hajmini orttirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning nazariy-uslubiy asoslarini boyitishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini oshirish, ularda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini yanada orttirish hamda hududlar eksport salohiyatidagi ulushini oshirish, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasiga va iqtisodiyotni rivojlantirishning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan maqsad va vazifalar doirasidagi tadbirlarni samarali amalga oshirish, tadbirkorlik

faoliyati bilan shug'ullanuvchi subyektlar faoliyatida qo'llash ularning samaradorligi darajasini yanada orttirishga va raqobatbardoshli mahsulotlar ishlab chiqarish orqali eksport darajasini yuksaltirishga hamda hududlar eksport xajmida kichik biznes va tadbirkorlikning ulushini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish yo'nalishida olib borilgan tadqiqot ishi bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy imkoniyatlari hamda ulardan foydalanish darajasining yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini "yuqori" (4,6 - 5,0), "yaxshi" (4,0 - 4,5), o'rta (2,0 - 3,9), "past" (0-1,9) darajalar chegarasida baholash orqali tashqi iqtisodiy faoliyatdagi ishtirokini faollashtirish yo'nalishlarini aniqlash taklifi respublikadagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 30-yanvardagi №06-41-1145-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan korxonalarining tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlanishiga va eksport hajmini orttirishga olib kelgan, hamda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyati samaradorligi o'rtacha 0,4% ga ortishi orqali ijobiy o'zgarishlarga erishilgan;

tadbirkorlik subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishni ta'minlovchi tadbirlar ($\sum_{i=1}^n T_i$) natijalarini eksport faoliyati ($E_f = 12$), import faoliyati ($I_f = 10$), umumiy faoliyat ($U_f = 10$) bo'yicha baholashga imkon beruvchi ko'rsatkichlarni tatbiq etish orqali takomillashtirish taklifi Farg'ona viloyatidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 30-yanvardagi №06-41-1145-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida tadbirkorlikning iqtisodiy salohiyatidan to'laroq foydalanilishi asosida ularning viloyat yalpi hududiy mahsulotidagi ulushi 0,25% ga, ish bilan band bo'lganlardagi ulushi 0,22% ga, eksportdagi ulushi 0,30% ga o'sishiga sabab bo'ldi;

tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda eksportga yo'naltirilayotgan har bir mahsulot uchun "manzilli qulay raqobat mikromuhiti"ni shakllantirish orqali tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish taklifi Farg'ona viloyatidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 30-yanvardagi №06-41-1145-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy etilishi asosida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining sonini ortishi hisobiga korxonalar faoliyati doirasining kengayishi iqtisodiyotda yangi ish o'rinlarining yaratilishiga xizmat qilgan;

Farg'ona viloyatidagi tadbirkorlik subyektlarining eksport imkoniyatlaridan foydalanishning ekonometrik tahlili asosida asosiy faoliyat ko'rsatkichlarining 2028 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz parametrlari Farg'ona viloyatidagi tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasining 2025-yil 30-yanvardagi №06-41-1145-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu prognoz ko'rsatkichlari va natijalari asosida tadbirkorlik subyektlari o'zlarining istiqboldagi faoliyatlarini aniq va samarali rejalashtirishiga olib kelgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo’yicha jami 12 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etgan nufuzli xorijiy jurnallarda 3 ta va mahalliy ilmiy jurnallarda 3 ta ilmiy maqola nashr etilgan.

Tadqiqot ishining tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat bo’lib, 130 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishining **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, ob’yekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo’yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati va imkoniyatlarini oshirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobi xalqaro iqtisodiy munosabatlarda tadbirkorlik subyektlari tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlanishining nazariy asoslari, tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat imkoniyatlarini oshirish tizimlari, tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati imkoniyatlarini oshirishga ta’sir etuvchi mexanizmlar bag‘ishlangan.

Globalashuv jarayonlarining kengayishi mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalarning yanada rivojlanishi va takomillashuviga olib keladi. Tovar va xizmatlar eksporti masalalarida qator o‘zgarishlar yuzaga keladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat samarasini oshirishda eksport salohiyatining o‘rni va ahamiyati katta. Eksport salohiyatiga faqat rivojlanish imkoniyati sifatida qarash mazkur tushunchani belgilashda juda tor va bir tarafdinlik yondashuv bo‘ladi, chunki uning haqiqiy (real) shaklini hisobga olmaydi. Shu bilan birga, “salohiyat” (inglizcha potential – imkoniyat, kuch, qudrat) so‘zining etimologiyasida ham uni muayyan tizimning imkoniyatlarini baholash uchun foydalanish nazarda tutiladi⁷.

A.A. Malsevning fikriga ko‘ra: “Biror bir hududning eksport salohiyati mazkur mintaqaning aniq bir tashqi bozorga chiqish va uni mustahkamlash imkoniyatlari bo’yicha baholanadigan eksport bazasidir. Mintaqa eksport bazasi deganda korxonalarining eksportga ishlab chiqarayotgan tovar va xizmatlar bilan birgalikda shu hududda raqobatbardoshlik bo’yicha jahon standartlariga mos keladigan, ammo ba’zi sabablarga ko‘ra xorijga jo‘natilmayotgan mahsulotlarning yig‘indisidir”⁸

XX asrning so‘nggi yillarida yetakchi jahon mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishining yuzaga kelgan xolati hamda jahon xo‘jaligi tuzilishida va o‘sish sur‘atlarida bo‘lgan o‘zgarishlarning amalga oshirilishi, tashqi iqtisodiy faoliyatni va eksport faoliyatining xususiyatlarini belgilab beradi.

⁷ Hamedov I.A., Alimov A.M. O‘zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari. T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi “Adabiyot jamg‘armasi” nashr., 2001. – 328 b.

⁸ Мальцев А.А. Государственное регулирование внешнеэкономической деятельности в РФ 1994-95 гг. Учебное пособие. - Екатеринбург: Изд-во ЕАИУП, 2004. – 260 с.

XXI-asrga kelib xalqaro ayirboshlashning tarkibiy tuzilishi ham keskin o'zgarib bordi. Xalqaro ayirboshlashning tarkibidagi turli xizmatlar, ishchi kuchi, fan-texnika natijalari, yangi innovatsion ishlanmalar, texnika va texnologiyalar, boshqaruv sohasidagi yangiliklar va shu kabi zamonaviy turlar rivojlandi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan tashqi iqtisodiy siyosat hamda tadbirkorlik faoliyatiga qaratilayotgan e'tibor tufayli tashqi iqtisodiy aloqalar muntazam rivojlanib bormoqda. Jahonning ko'plab mamlakatlari bilan xalqaro savdo munosabatlari o'rnatilgan. Keyingi yillarda tadbirkorlikning rivojlanishi va ularni tashqi iqtisodiy faoliyatga kirishishlari natijasida mamlakatimizda tovarlar va xizmatlar eksporti hajmi ortib bormoqda.

Tadbirkorlik subyektlarini samarali faoliyat olib borishi tartibga solishda ta'sir etuvchi omillarini tadqiq etish muhim ahamiyatli hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 14 maydagi 283-son «O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishdagi ko'rsatkichlar tizimi keltirilgan⁹. Hozirgi vaqtdagi iqtisodiyotning globallasuvi sharoiti hamda turli o'zgarishlar ta'sirini hisobga olgan holda tadbirkorlik subyektlaridan quyidagi ko'rsatkichlarni ham onobatga olishlarini maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Eksport qilinadigan tovarlar soni. Kichik biznes korxonasi necha xil tovarni eksport qilish bilan shug'ullanmoqda. Bu tovarlar soni turli muddatlarda o'zgarishi mumkin. Biz uchun aynan nega ular soni o'zgarayapti va nima uchunligini aniqlash muhimdir.

2. Eksport qilinadigan tovarlarning natural ko'rsatkichlardagi miqdori.

3. Eksport qilinadigan tovarlarning qiymat ko'rsatkichlari.

Tadbirkorlik subyektlarining korxonalaridagi biznes jarayonlarining tashqi savdoni rag'batlantirishdagi rolini oshirish yo'nalishlari quyidagilardan iborat bo'lishini inobatga olish lozim:

- tashqi savdo uchun malakali xodimlarni jalb qilish.

- raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash.

- korxonalar faoliyatini modernizatsiyalash.

Kichik korxonalarda ishlab chiqaradigan mahsulotlarni tashqi savdoga moslashtirish, eksportga yo'naltirish uchun quyidagi yo'nalishlarni amalga oshirish talab etiladi:

- mahsulot sifatini muntazam takomillashtirib borish;

- mahsulotlarning tashqi ko'rinishini, dizaynini tashqi bozorlarga moslashtirish;


- xalqaro standartlarni joriy qilish.

Tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari qatori bu faoliyatning samaradorligi ko'rsatkichlari ham aniqlanadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligi ko'rsatkichi sifatida eksport samaradorligi koeffitsiyenti ko'rsatkichi aniqlanadi.

Import faoliyati bilan shug'ullangan korxonalar faoliyatini tahlil qilish uchun quyidagi ko'rsatkichlar qo'llaniladi:

⁹ O'zbekiston Respublikasida tashqi savdo operatsiyalari monitoringini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 14.05.2020 yildagi 283-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4812419>

import qilinadigan tovarlarning qiymati;
 transport va ekspeditorlik xarajatlari;
 bitimni tuzish bilan bog‘liq xarajatlar, valyuta risklari va yo‘qotishlar, bojxona to‘lovlari va yig‘imlari kabi boshqa xarajatlar.



1-rasm. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlar¹⁰

Tadbirkorlik subyektlari samaradorligini oshirishda ularning tashqi iqtisodiy faoliyati ko‘rsatkichlarini samarali tizimlashtirishni tadqiq qilish zarur. Ayniqsa eksport faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlarini taxlil qilish muhim va ahamiyatli xisoblanadi.

Eksport faoliyati samaradorligini aniqlashda avvalambor eksport faoliyatining iqtisodiy samaradorligini hisoblash lozim. Tadbirkorlik subyektlari eksport faoliyati bilan shug‘ullanganda quyidagi xarajatlarni amalga oshiradilar:

1. Eksport qilinadigan tovarlarning ishlab chiqarish tannarxi.
2. Tayyor mahsulotni tashish bilan bog‘liq xarajatlar.
3. Boshqa xarajatlar (sug‘urta, bojxona to‘lovlari, boshqa qo‘shimcha hujjatlarni rasmiylashtirish).

Tadbirkorlik subyektlarining eksport bo‘yicha iqtisodiy samaradorligini quyidagicha quyidagi formula orqali aniqlash mumkin:

$$E_{i.s.} = D_e + V_{s.t.} - X_{eks} \quad (1)$$

Bu yerda:

$E_{i.s.}$ - tadbirkorlik korxonasining eksport bo‘yicha iqtisodiy samaradorligi ko‘rsatkichi, ming ming so‘mda;

D_e - eksport qilingan mahsulot qiymati, ming so‘mda;

$V_{s.t.}$ - valyutani sotishdan tushadigan tushum, ming so‘mda (agar valyuta kursi salbiy bo‘lsa ishora o‘zgaradi);


X_{eks} - korxonani eksport bilan bog‘liq xarajatlari (mahsulotni ishlab chiqarish, sotish, marketing va boshqa xarajatlari), ming so‘mda.

Tadbirkorlik subyektlarining o‘z faoliyati davomida tashqi iqtisodiy faoliyatga kirishish imkoniyati mavjud va bu faoliyat natijasida samaradorlikni oshirishga tasir qiladi.

¹⁰ Muallif ishlanmasi

Tadbirkorlik sub'ektlari tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishni ta'minlovchi tadbirlar ($\sum_{i=1}^n T_i$) natijalarini eksport faoliyati ($E_f = 12$), import faoliyati ($I_f = 10$), umumiy faoliyat ($U_f = 10$) bo'yicha baholashga imkon beruvchi ko'rsatkichlarni tatbiq etish orqali takomillashtirish zarur.

Tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatida eksport yoki import hajmi va uning samaradorligi oshirish muhim ahamiyatli xisoblanadi. Faoliyatni amalga oshirishda zaruriy vositalar tizimlashtirish zaruratini ko'rsatmoqda (2-rasm).




2-rasm. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish tizimi¹¹

Raqobatbardoshlikni oshirish avvalambor ta'sir etuvchi tashqi va ichki omillariga ajratib olishni taqozo etadi va ular ta'sirini hisobga olgan holda mahsulot ishlab chiqarishga kirishilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Tashqi ta'sir muhiti omillarini o'rganishda bozor omillari hamda iste'molchilar, raqobatdoshlar va boshqa asosiy omillarga e'tibor qaratilishi kerak. Subyekt faoliyati samarasiga ta'sir

¹¹ Muallif ishlanmasi

ko'rsatuvchi ichki omillardan maqsadlar, vazifalar va texnologiyadagi o'zgarishlarni hisobga olish kerak. Bu bosqichda mahsulot sifati rejalashtiriladi, so'ngra amalga oshirish bosqichi boshlanadi va bu bosqichda faoliyat tashkil etiladi va har bir harakat rag'batlantirilib borilishi kerak (2-rasm).



3-rasm. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirishda raqobatbardoshlikni ta'minlash mexanizmi¹²

Tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini ta'minlashda eksportga yo'naltirilayotgan har bir mahsulot uchun "manzilli qulay raqobat mikromuhiti"ni shakllantirish orqali tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish zarur.


Eksportga yo'naltirilayotgan har bir mahsulot uchun "manzilli qulay raqobat mikromuhiti"ni shakllantirish maqsadida raqobatbardoshlik va mahsulot sifatini ta'minlash bo'yicha ishlarni amalga oshirish bosqichida rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlar uchun zarur bo'lgan infratuzilmani rivojlantirish, xalqaro standartlarni o'rganish va rioya qilish, eksportni rivojlantirish yo'nalishlari¹³, tashqi bozorlarini tahlil qilish va o'rganish, texnologik jihozlanish

¹² Muallif ishlanmasi

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.08.2022 y. PQ-364-son "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022 yildagi "ochiq muloqoti"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

darajasini takomillashtirish, ko'rsatkichlarni hisoblash uslubiyotini ishlab chiqish, Tadbirkorlik subyektlarida tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha strategiyalarni yaratish va ularga amal qilish bo'yicha yo'riqnomalar, ko'rsatmalar tayyorlash hamda harakatga keltirish ishlari bajariladi.

Xo'jalik yurituvchi ayniqsa tadbirkorlik subyektlarida samaradorlikni oshirishda eksportga yo'naltirilayotgan tovarlar raqobatbardoshligini ta'minlash mexanizmining rivojlangan mamlakatlar bilan o'zaro iqtisodiy munosabatlar uchun zarur bo'lgan infratuzilmani yanada takomillashtirish bo'yicha vazifalarida elektron tijorat hamda axborotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish operatsiyalari samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning yo'lga qo'yish iborat bo'lsa maqsadga muvofiq deb xisoblanadi (3-rasm).



3-rasm. Tadbirkorlik subyektlarini tashqi savdo faoliyati samaradorligini oshirishda eksport salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari¹⁴

Dissertatsiya ishining **“Tadbirkorlik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyati, imkoniyatlari va samaradorligi darajasi”** deb nomlangan ikkinchi bobi Farg'ona viloyati iqtisodiyotining rivojlanishi ko'rsatkichlari va uning rivojlanishida Tadbirkorlik subyektlarining ta'siri o'rganilgan, Tadbirkorlik korxonalarida eksportga yo'naltirilayotgan tovarlar raqobatbardoshligini oshirish mexanizmiga bag'ishlangan.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kichik biznes shaklidagi yengil sanoat korxonalarining eksport faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash va tahlil qilish usullarini takomillashtirish muammosi, bu o'rganilayotgan omillarning rivojlanish tendentsiyasini dastlabki bosqichda aniqlash va baholash imkonini beradi hamda ularning eksport samaradorligiga ta'sirining mumkin bo'lgan oqibatlarini

¹⁴ Muallif ishlanmasi

tahlil qilish, korxonaning eksport faoliyatini yaxshilash yo‘llarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun institutsional muhitda mamlakatimiz iqtisodiyotining iqtisodiy raqobatbardoshligini oshiruvchi shart-sharoitlarni takomillashtirish, avvalambor innovatsion faoliyatni yanada jadallashtirish katta samara beradi, deb hisoblaymiz.

Mamlakatimiz va viloyatimizning xalqaro iqtisodiy aloqalarni takomillashtirish masalasi ishlab chiqarish sohasida ham qator tadbirlarni amalga oshirishni talab qilmoqda. Ishlab chiqarish sohasida umumiy sifat tizimlarining, xalqaro standartlarning qo‘llanishini ta‘minlash, rag‘batlantirish hamda malaka oshirish, treninglarni tashkil qilish kabi yo‘llar orqali qo‘llab-quvvatlash; ekologik mahsulot meyorlarining ishlab chiqilishi hamda joriy qilinishi; investitsion loyihalarning hayotiyliigi va rentabelligini baholash uslubiyotini takomillashtirish zarur.

Kichik biznesni rivojlantirish yo‘nalishida mamlakatimiz tadbirkorlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan hamda eksport qilinayotgan mamlakatlarga yetkazib berilayotgan tovarlar raqobatbardoshligini oshirishni ta‘minlovchi imtiyozlarni yanada yuqori darajalarda berilishi, xususiyy biznes subyektlariga mahalliy va xorij bozoriga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishlarida qat‘iy nazar, ular tomonidan amalga oshiriladigan zamonaviy texnologiyalar importini bojxona to‘lovlaridan ozod qilish katta samara keltiradi. Eksport-import operatsiyalarining transport xarajatlarini kamaytirish maqsadida yirik transport korxonalari tegishli vazirlik va idoralar, korxonalar, tadbirkorlik uyushmalari bilan hamkorlikda milliy transport jamlanmasini tashkil etish bo‘yicha ham o‘rganishlar olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

Kichik biznes shaklidagi korxonalarining mamlakatimizning tashqi iqtisodiy faoliyatida hamda eksport salohiyatidagi o‘rni va hissasini oshirish maqsadida qator chora-tadbirlar belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Bu chora-tadbirlarning birinchi va asosiy bosqichida Tadbirkorlik subyektlarining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini baholash amalga oshirilishi lozim (1-jadval).

1-jadval

2023-yilda Farg‘ona viloyatidagi Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ko‘rsatkichlari¹⁵

№	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	“Quva Tekstil” MChJ	“Narimteks” MChJ	“Victory textile” MChJ
1	Ishlab chiqarilgan mahsulot	ming so‘m	529636,0	848000,0	1232000,0
2	Eksport qiymati	ming so‘m	52980,0	126880,0	122880,0
3	Eksport ulushi	%	10,00	14,90	9,97
4	Sof foyda	ming so‘m	3524,0	88980,0	100968,0
5	Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi	%	0,94	1,51	2,20

Masalan, Farg‘ona viloyati tadbirkorlik subyektlarining viloyat yalpi xududiy mahsulotidagi ulushi 2022 yili 68,9 % ni tashkil etdi. Faqatgina ushbu raqam bilan viloyat Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga baho berib bo‘lmaydi. Shu sababli,

¹⁵ Muallif tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida tayyorlandi.

Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy qudrati va imkoniyatlarini o‘rganish jarayonida ularning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi yoki viloyat yalpi hududiy mahsulotidagi ulushini baholashda o‘ziga xos bo‘lgan baholash usulini ishlab chiqishga ehtiyoj sezildi.

2-jadval

Farg‘ona viloyatidagi Tadbirkorlik subyektlari faoliyati ko‘rsatkichlari bo‘yicha indekslar¹⁶

№	Ko‘rsatkichlar nomi	O‘lchov birligi	“Quva Tekstil” MChJ	“Narimteks” MChJ	“Victory textile” MChJ
1	Ishlab chiqarilgan mahsulot	ming so‘m	529636,0	848000,0	1232000,0
2	Eksport qiymati	ming so‘m	52980,0	126880,0	122880,0
3	Eksport ulushi	%	10,00	14,90	9,97
4	Eksport koeffitsiyenti	koeff.	0,10	0,149	0,099
5	Sof foyda	ming so‘m	30524,0	88980,0	100968,0
6	Sof foyda koeffitsiyenti	koeff.	0,057	0,10	0,08
7	Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi	koeff.	0,94	1,51	2,20
8	Yalpi hududiy mahsulotda qatnashish bahosi		1,597	1,759	3,549

Farg‘ona viloyatining 2022-yildagi yalpi hududiy mahsulot hajmi 55 972,1 mln. so‘mni tashkil etgan. Bu korxonalarining viloyat yalpi hududiy mahsulotidagi ulushi “Quva Tekstil” korxonasining ulushi 0,94 %, “Narimteks” 1,51 %, “Victory textile” niki esa 2,20 % ni tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholasa ham bo‘ladi. Ammo, bu ko‘rsatkichning o‘zida mahsulotning sifati, raqobatbardoshligi darajasi, eksport hajmi va o‘rtacha ish haqi bo‘yicha ma‘lumotlar aks etmaydi. Hozirgi vaqtda korxonalar faoliyati ularning tashqi iqtisodiy faoliyati bo‘yicha hamda hudud va undagi aholi rivojlanishiga ta‘sirini ko‘rsatuvchi ijtimoiy faoliyati bo‘yicha baholanishi lozim. Shu sababli, Tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini baholashda, ya‘ni yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini baholashda quyidagi usulni taklif qilamiz.

Tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy salohiyati va imkoniyatlarini o‘rganish asosida ularning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushini baholashda mezonlar va baholash darajalarini belgilab olish zarur. Bunda baholashda “yuqori” (4,6 - 5,0), “yaxshi” (4,0 - 4,5), o‘rta (2,0 - 3,9), “past” (0-1,9) darajalar chegarasida baholashni taklif qilamiz.

“Narimteks” korxonasining Eksport koeffitsiyentini aniqlaymiz:

$$\text{Eksport koeffitsiyenti} = \text{Eksportdagi ulush} / 100 = 14,90 / 100 = 0,149$$

Sof foyda koeffitsiyentini aniqlashda quyidagi formuladan foydalanishni tavsiya etamiz:

$$\text{Sof foyda koeffitsiyenti} = \text{Sof foyda} / \text{Ishlab chiqarilgan mahsulot} = 88980/848000=0,10$$

$$\text{Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi koeffitsenti} = \text{Ishlab chiqarish hajmi} / \text{Yalpi hududiy mahsulot} \times 1000 = 848000 / 55972,1 \times 1000 = 1,51$$

Yalpi hududiy mahsulotda qatnashish bahosi:

$$\text{Yalpi hududiy mahsulotda qatnashish bahosi} = \text{Eksport koeffitsiyenti} + \text{Sof foyda koeffitsiyenti} + \text{Yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi koeffitsenti} = 0,149 +$$

¹⁶ Muallif tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotlar asosida tayyorlandi.

0,10+ 1,51= 1,759

Ushbu Tadbirkorlik subyektlarining yalpi hududiy mahsulotda qatnashish faoliyatiga quyidagicha baho berish mumkin:

“Quva Tekstil” korxonasi ko'effitsiyenti 1,597 ga teng bo'ldi, “Narimteks” 1,759 ga teng bo'ldi “Victory textile” korxonasi esa 3,549 ga teng bo'ldi. Bu baholardan foydalangan holda Tadbirkorlik subyektlarining reytingini tuzish mumkin hamda ularni faoliyatni tashkil etish jarayonida foydalanish mumkin. Bu korxonalarining yalpi hududiy mahsulotda qatnashish darajasini orttirish maqsadida tadbirlar rejasi tuzish va amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Tadbirkorlik subyektlari o'zlarining tashqi iqtisodiy faoliyatida bir qator strategiyalardan foydalanishlari mumkin. Bu strategiyalar quyidagilar bo'lishi mumkin: Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirayotgan tadbirkorlik va kichik biznes korxonalarini o'zlarini ishlab chiqaradigan tovarlariga texnik va texnologik jihatdan o'xshash va unga mos keluvchi mahsulotlarni o'rganishlari, mavjud xususiyatlarini o'rganishlari va bu ma'lumotlar asosida yangi mahsulot turlarini yaratishlari eksport salohiyatining samarasini orttirishga olib keladi. Shu bilan birgalikda, Tadbirkorlik subyektlari o'z mahsulotlari uchun yangi shakllangan iste'molchilar guruhini topishlari va ular uchun ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishlari ham mumkin. Tadbirkorlik subyektlari xalqaro bozorlarga avval mavjud bo'lgan mahsulotlarga umuman o'xshamagan yangi mahsulotlarni yaratishlari, ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirgan holda bu mahsulotlarni yuqori iste'mol qiymatga ega bo'lgan holda ishlab chiqarishlari va xalqaro bozorlarga olib chiqishlari tashqi iqtisodiy faoliyat samarasini orttirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tariqa amalga oshirilgan faoliyat tavakkalchilikka asoslanadi.

3-jadval

Farg'ona viloyatida tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatkichlari¹⁷

№	Ko'rsatkichlar nomi	2017-yil	2018-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2023-yilda 2017-yilga nisbatan,%
1	Yalpi hududiy mahsulot, jami, mlrd.so'm	19837,5	26 611,5	31 818,4	36 538,9	47331,9	55972,1	65781,0	282,1
2	Ekspart, mln. AQSh dollari	514,0	484,3	574,4	556,1	801,3	827,2	678,5	132,0
	O'zgarish ko'effisienti	1,0	0,94	1,11	1,08	1,55	1,61	1,32	
	O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi ko'effisienti	1,00	0,94	1,18	0,96	1,44	1,03	0,81	-
3	Import, mln. AQSh dollari	435,4	869,3	843,4	907,0	1 034,3	1 234,3	1290	296,2
	O'zgarish ko'effisienti	1,0	1,99	1,93	2,08	2,37	2,83	2,96	
	O'tgan yilga nisbatan o'zgarishi ko'effisienti	1,0	1,99	0,97	1,07	1,14	1,19	1,04	-

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Farg‘ona viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta‘minlashda tashqi iqtisodiy faoliyat ham katta xissa qo‘shib kelmoqda. Viloyatdagi korxonalar va tashkilotlar tomonidan qator eksport va import amallari bajarilib kelinmoqda. Bu sohada ko‘rsatkichlar ham tobora o‘shib bormoqda. 2017 yili jami eksport 514,0 mln.AQSh dollariga teng bo‘lgan bo‘lsa, 2023 yilga kelib viloyatda 678,5 mln. AQSh dollariga teng bo‘lgan eksport amallari bajarildi yoki bu yillar orasidagi o‘shish sur‘ati 132,0 %ni tashkil etdi (3-jadval). 2023 yili viloyatda 1290,0 mln.AQSh dollariga teng bo‘lgan import amallari bajarildi yoki 2017 yilga nisbatan 296,2 % ga o‘tdi.

